**"TASDIQLAYMAN"**
**"O'zagrolizing" AJ**
**Boshqaruv raisi**

____________ **N.S.Otajonov**
«01» mart 2023-yil

2023-yil 01-mart Toshkent sh.

**BOSHQARUV MAJLISINING**
**18-SONLI BAYONI**

| | |
|---|---|
| **Raislik qildi:** | **N.S. Otajonov** - "O'zagrolizing" AJ Boshqaruv raisi |
| **Majlisga qatnashgan Boshqaruv a'zolari:** | A.Sh. Nasirdinov, Sh.K. Maxmudov, E.S. Qurbonov, Sh.Sh. Qodirova |
| **Taklif etilganlar:** | Boshqarma va bo'lim boshliqlari |

**KUN TARTIBI:**

"O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil I-yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida.

*(N.Otajonov, A.Nasirdinov, Sh.Maxmudov, E.Qurbonov, Sh.Qodirova, N.Otajonov)*

**Eshitildi:**

D.M. Kurbanbayev-Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi bo'limi boshlig'i.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6166-son Farmoni qabul qilingan.

Mazkur Farmon bilan, Boshqaruv tizimini iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani, shuningdek, Respublika hududlarini rivojlantirishning maqsadli va ustuvor vazifalarga muvofiq takomillashtirish yuzasidan barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idorlarning o'zlarining kollegial organlari majlislarida boshqaruv vertikali bo'yicha barcha bo'g'inlarni qamrab olingan tegishli ish rejalarining puxta ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan.

**Ish rejalarini ishlab chiqishda:**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hamda O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda ishlarni tashlik etish va amalga oshirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida" 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni hamda u bilan tasdiqlangan **"Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili"**da amalga oshirishga oid davlat dasturidagi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda ishlarni tashlik etish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmonida va 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorida belgilangan ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha yagona va uzliksiz "texnologik zanjir"ni tashkil qilish borasidagi ustuvor yo‘nalishlar talablariga qat’iy rioya etish belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, belgilangan vazifalarning ijrosini o‘z muddatlarida tashkil etish va ta’minlash maqsadida, "O‘zagrolizing" AJning 2023-yil I-yarim yillikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan ish rejasi ishlab chiqildi.

Yuqorida bayon etilganlarga muvofiq kun tartibidagi masala yuzasidan Boshqaruv majlisi **qaror qiladi:**

1. "O‘zagrolizing" AJning 2023-yil I-yarim yillikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan ish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi bo‘limi (Kurbanbayev) mazkur boshqaruv majlis bayonini jamiyatning boshqarma, bo‘limlar va hududiy filiallari hamda tizim korxonalariga yetkazilishini ta’minlasin.

3. Jamiyatning boshqarma, bo‘limlar va hududiy filiallari hamda tizim korxonalari rahbarlariga 2023-yil I-yarim yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida, puxta va to‘liq ijro etilishi yuzasidan shaxsiy mas’uliyat yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Boshqaruv raisining o‘rinbosari A.Nasirdinov zimmasiga yuklatilsin.

**Boshqaruv a’zolari:** ______________ **Nasirdinov A.Sh**

______________ **Maxmudov Sh.K.**

______________ **Qurbonov E.S.**

______________ **Qodirova Sh.Sh.**

**Bosh yuriskonsult** ______________ **Xasanov Sh.J.**

**Kotib** ______________ **Kurbanbayev D.M.**

**“O‘zagrolizing” AJning**
**2023-yil 01-martdagi 18-sonli**
**Boshqaruv majlis bayoniga**
**1-ILOVA**

# “O‘ZAGROLIZING” AKSIYADORLIK JAMIYATINING 2023-YIL I-YARIM YILLIK ISH REJASI

| T/r | AMALGA OSHIRILADIGAN VAZIFALAR | IJRO MUDDATI | IJRO UCHUN MAS’ULLAR |
|---|---|---|---|
| **I. Ustuvor vazifa - Jamiyatning 2023-yil I-yarim yillikda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari.** | | | |
| 1.1 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan **Murojaatnomasidan** kelib chiqadigan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. | Doimiy | A.Nasirdinov, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar, tizim korxonalari rahbarlari |
| 1.2 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni va u bilan tasdiqlangan **“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da** amalga oshirishga oid davlat dasturidagi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda ishlarni tashlik etish; | Doimiy | A.Nasirdinov, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar, tizim korxonalari rahbarlari |
| 1.3 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o‘tkazilgan majlis bayonlarida hamda Respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi 2023-yilda bajarilishi lozim bo‘lgan tegishli nazorat bandlarini so‘zsiz va sifatli bajarish. | Doimiy | A.Nasirdinov, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar, tizim korxonalari rahbarlari |
| 1.4 | Xorijiy mamlakatlar bilan xamkorlikni rivojlantirish va kengaytirish bo‘yicha tasdiqlangan **“Yo‘l xaritalari”da** nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash. | Doimiy | A.Nasirdinov, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari, hududiy filiallar, tizim korxonalari rahbarlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **II. Ustuvor vazifa - Jamiyatning 2023-yil I-yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalari va takliflari.** | | | |
| 2.1 | 2023-yil I-yarim yillikda **370 mlrd.** so'm lizing to'lovlari undirilishini ta'minlash. **Shundan:**<br>- 200,0 mlrd. so'm paxta va g'alla imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan;<br>- 170,0 mlrd. so'm erkin mablag'lar hisobidan undirish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, E.Qurbonov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.2 | Lizing to'lovlaridan hosil bo'lgan qarzdorliklarni undirilishi yuzasidan har oyda rahbariyatga ma'lumot kiritib borish. | Har oy yakunida kelgusi oyning 3-sanasigacha | E.Qurbonov, Sh.Qodirova |
| 2.3 | Lizing loyihalarini moliyalashtirish maqsadida mahalliy tijorat banklaridan **170 mlrd.** so'm kredit mablag'larini jalb qilish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, E.Qurbonov, Tegishli boshqarma va bo'lim boshliqlari |
| 2.4 | Jamiyat tomonidan qishloq xo'jaligi texnikalarini yetkazib berish manbalari turi va hajmini ko'paytirish hamda lizing loyihalarini moliyalashtirish maqsadida, xorijiy moliya institutlardan mablag'lar jalb qilish choralarini ko'rish. | I-yarim yillikda | A. Nasirdinov, E.Qurbonov, M.Xakimov, Tegishli boshqarma va bo'lim boshliqlari |
| 2.5 | Respublikadagi paxtachilik va g'allachilik klasterlari, fermer xo'jaliklari hamda qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi korxonlarning texnikalarga bo'lgan talalblarini o'rganish. Bunda lazerli yer tekislagichlar, chorvachilik, bog'dorchilik, baliqchilik, va uzumchilik uchun maxsus texnikalar va paxta terish mashinalariga e'tibor qaratish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, N.Meliboyev, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.6 | Respublika qishloq xo'jaligiga 2023-yil 1-yarim yillikda jami 1 925 dona 397,0 mlrd. so'mlik har xil turdagi qishloq xo'jaligi texnikalarini lizing asosida yetkazib berilishini ta'minlash.<br>**Shundan:**<br>- 260 dona 133,9 mlrd. so'mlik traktorlar;<br>- 80 dona 18,3 mlrd. so'mlik lazerli yer tekichlagichlar;<br>- 100 dona 163,3 mlrd. so'mlik g'alla o'rish kombaynlari;<br>- 270 dona 18,9 mlrd. so'mlik chorvachilik texnikalari;<br>- 90 dona 12,5 mlrd. so'mlik ekish texnikalari;<br>- 1 125 dona 50,1 mlrd. so'mlik boshqa texnikalar. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, N.Meliboyev, E.Qurbonov, Sh.maxmudov, hududiy filiallar rahbarlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2.7 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-sentyabr kuni Toshkent viloyatiga tashrifi davomida qishloq xo‘jaligi soxalarini rivojlantirish yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari tomonidan 2022-yil 24-sentyabrda 03/1-2436-son bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent viloyatiga qishloq xo‘jalik texnikalarini lizing asosida yetkazib berish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, N.Meliboyev, Toshkent viloyati filiali (I.Norbo‘tayev) |
| 2.8 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrifi davomida qishloq xo‘jaligi soxalarini rivojlantirish yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari tomonidan 2022-yil 1-dekabrda 03/1-679-son bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida Navoiy viloyatiga qishloq xo‘jalik texnikalarini lizing asosida yetkazib berish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, N.Meliboyev, Navoiy viloyati filiali (X.Atakulov) |
| 2.9 | Lizingga yetkazib berilgan **13 800 dona** qishloq xo‘jaligi texnikalari va agregatlarining barchasini joriy yilning I-yarim yilligida monitoring ko‘rigidan o‘tkazish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, N.Meliboyev, I.Odiljonov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.10 | Texnika ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar tomonidan viloyatlarda qishloq xo‘jaligi texnikalari bo‘yicha o‘tkaziladigan seminar ko‘rgazmalarda ishtirok etish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, N.Meliboyev, I.Odiljonov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.11 | Lizing asosida yetkazib berilgan qishloq xo‘jaligi texnikalarini o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni va davlat raqam belgisi olishni tashkillashtirish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, N.Meliboyev, I.Odiljonov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.12 | Lizing to‘lovlaridan xosil bo‘lgan qarzdorliklarni hududiy viloyat filiallar va tizim tashkilotlari tomonidan sud mexanizmi orqali undirilish choralarini ko‘rish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, Sh.Maxmudov, hududiy filiallar va tizim korxonalari rahbarlari |
| 2.13 | Lizing obyektiga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan tegishli davlat boshqaruv organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ishlar tashkil etish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, Sh.Maxmudov, hududiy filiallar va tizim korxonalari rahbarlari |
| 2.14 | Lizing to‘lovlaridan mavjud qarzdorliklarni undirilishi, qarzdorlarga nisbatan shartnoma-da’vo ishlari yuritilishining holatini maqsadli o‘rganish va amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida viloyatlarga xizmat safariga borish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, Sh. Maxmudov, S.Qurbanov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2.15 | Jamiyat ijroiya apparati va hududiy filiallar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish borasida ishlarni tashkil etish, qonunchilik sohasidagi yangiliklar bilan doimiy tanishtirib borish. | I-yarim yillikda | Sh.Maxmudov, Tegishli boshqarma va bo'lim boshliqlari, |
| 2.16 | Jamiyat Kuzatuv kengashi muhokamasiga jamiyat tomonidan qo'shimcha aksiyalar chiqarish uchun emissiya risolasi va qarorni tasdiqlash uchun kiritish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, A.Norboyev Tegishli boshqarma va bo'lim boshliqlari |
| 2.17 | Jamiyat Kuzatuv kengashi muhokamasiga jamiyatning 2022-yil yakunlari bo'yicha korporativ tizimini baholash uchun mustaqil baholovchi tashkilotni jalb qilishga rozilik olish. | 2023-yil Aprel-may | A.Nasirdinov, A.Norboyev |
| 2.18 | Boshqaruv raisi hamda ichki audit xizmatining 2023-yil 1-chorak yakunlari bo'yicha hisobotlarini tasdiqlash uchun Jamiyat Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, A.Norboyev, Tegishli boshqarma va bo'lim boshliqlari |
| 2.19 | Jamiyatning 2022-yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini chaqirilishini tashkillashtirish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, A.Norboyev, Boshqarma va bo'lim boshliqlari |
| 2.20 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 357-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **"Lizing asosida yetkazib berilayotgan o'ziyurar qishloq xo'jaligi texnikalari uchun GPS monitoring tizimini joriy etish"** loyihasining texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish. | 2023-yil Mart | A.Nasirdinov, T.Eshonkulov, N.Meliboyev, Sh.Qodirova, "Lizing axborot texnologiyalari" MChJ |
| 2.21 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 357-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **"Lizing asosida yetkazib berilayotgan o'ziyurar qishloq xo'jaligi texnikalari uchun GPS monitoring tizimini joriy etish"** loyihasin joriy etish. | 2023-yil Iyun | A.Nasirdinov, T.Eshonqulov "Lizing axborot texnologiyalari" MChJ |
| 2.22 | "Lizing" Axborot tizimi negiziida lizingga yetkazib berilgan texnikalardan bo'lgan qarzdorlik, uning undirilishi, sudga berilganlik holati va boshqa shu kabi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradigan "Yuridik qism" modulini ishlab chiqish. | 2023-yil Aprel | A.Nasirdinov, T.Eshonqulov, M.Yusupov, "Lizing axborot texnologiyalari" MChJ |
| 2.23 | Axborot xavfsizligini ta'minlashning zarur vositalarini joriy etish. | 2023-yil May | T. Eshonqulov, M.Yusupov, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2.24 | 2022-yil yakunlariga ko‘ra agrar sohani lizing asosida qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida **matbuot anjumani yoki brifing** o‘tkazish. | 2023-yil Aprel-may | A. Nasirdinov, S.Qurbanov, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari |
| 2.25 | Jamiyat balansidagi barcha asosiy vositalar va tovar moddiy boyliklarni xatlovdan o‘tkazish va ularning ro‘yxatlarini shakllantirish. | I-yarim yillikda | A. Nasirdinov, Sh.Qodirova, X.Xamdamov, hududiy filiallar rahbarlari |
| 2.26 | Jamiyatning 2023-yil moliya-xo‘jalik faoliyat yakunlarini tashqi auditdan o‘tkazish bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda eng yaxshi taklifni aniqlash maqsadida e’lon berish. | I-yarim yillikda | A. Nasirdinov, Sh.Umarov, X.Xamdamov, T.Eshonkulov |
| 2.27 | Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan 2023-yil uchun tekshirish dasturi va reja-grafikka asosan amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida hududiy viloyat filiallariga xizmat safariga chiqish. | I-yarim yillikda | Sh.Umarov, J.Masharipov, hududiy filiallar va tizim korxonalar rahbarlari |
| 2.28 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-avgust kuni Toshkent shahriga tashrifi davomida o‘tkazilgan 64-son yig‘ilishi bayoni ijrosini ta’minlash hamda muqobil energiya manbalaridan foydalanish maqsadida tasdiqlangan Reja-jadvaliga asosan hududiy viloyat filiallari binosiga **5 kBt** quyosh panellarini o‘rnatish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, X.Xamdamov, Sh.Qodirova, hududiy filiallar rahbarlari |
| **III. Ustuvor vazifa – Jamiyat faoliyati yuzasidan ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash.** | | | |
| 3.1 | Jamiyat faoliyati haqida **reportaj tayyorlash** hamda OAVda namoyish qilinishini tashkillashtirish. | 2023-yil Aprel-iyun | A.Nasirdinov, S.Qurbanov |
| 3.2 | Jamiyat rasmiy veb-saytining ingliz tilidagi versiyasini ishga tushirish. | I-yarim yillikda | T.Eshonqulov |
| 3.3 | Jamiyatning mijozlari va ularning ish faoliyatlarida lizing obyektlaridan foydalanish samaradorligi hamda ish natijalari bo‘yicha **interaktiv intervyular** tashkil etish va materiallarni jamiyat mijozlariga video shaklida yetkazish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, S.Qurbanov, T.Eshonqulov |
| 3.4 | Jamiyat faoliyati va imidjiga dahldor masalalarda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan xabarlarga rasmiy bayonot berish orqali zudlik bilan munosabat bildirib borish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, S.Qurbanov |
| 3.5 | Jamiyat faoliyatiga doir ma’lumotlarni jamiyat “Veb sayti”ga doimiy joylashtirib borish. | Har haftada | A.Nasirdinov, S.Qurbanov, T.Eshonqulov |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **IV. Ustuvor vazifa - Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada rivojlantirish, Yoshlarni qo'lab-quvvatlash va Xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish, istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirish.** | | | |
| 4.1 | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida boshqaruv toifasiga kiruvchi bir guruh rahbar xodimlarni malaka oshirish kurslarini tashkil qilish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, M.Mirabdullayev, S.Qurbanov |
| 4.2 | **"Biz buyuk davlat, buyuk tarix, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz!"** shiori ostida Jamiyat tizimi xodimlari uchun buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodi hamda boy ilmiy merosini chuqur o'rganishga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish. | I-yarim yillikda | M.Mirabdullayev, X.Xamdamov |
| 4.3 | **9-may–"Xotira va qadrlash kuni"** munosabati bilan "O'zbek xalqining ikkinchi jahon urushida ko'rsatgan buyuk jasorati" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, ikkinchi jahon urushi qatnashchilaridan bir guruh veteran va front orti mehnat faxriylari holidan xabar olish. | 2023-yil May | A.Nasirdinov, M.Mirabdullayev, X.Xamdamov, A.Abdukarimov |
| 4.4 | **Navro'z umuxalq** bayrami munosabati bilan, Jamiyat tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar o'rtasida sportning futbol, stol tennisi, shaxmat turlari bo'yicha sport musobaqalarini o'tkazish. | 2023-yil Mart | A.Nasirdinov, A.Abdukarimov, X.Xamdamov, hududiy filiallar va tizim korxona rahbarlari |
| 4.5 | Mamlakatimizda 30-iyun-Yoshlar kuni sifatida keng nishonlanishi munosabati bilan jamiyat tizimida mehnat qilayotgan yoshlar uchun **"Rahbar va yoshlar"** uchrashuvlarini tashkil etish. | 2023-yil Iyun | A.Nasirdinov, A.Abdukarimov, hududiy filiallar va tizim korxonalar rahbarlari |
| 4.6 | Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, Jamiyat tizim xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish, ilmiy-ta'lim markazlarida malaka oshirish kurslariga jalb qilish. | I-yarim yillikda | S.Qurbanov, hududiy filiallar va tizim korxonalar rahbarlari |
| 4.7 | Hududiy viloyat filiallari va tizim korxonalarining mas'ul xodimlar uchun kadrlar masalasida qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar, ish yuritish va arxiv ishi bo'yicha **o'quv seminar** tashkil etish. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, S.Qurbanov, D.Kurbanbayev, M.Abdullayev |
| **V. Ustuvor vazifa - O'zbekiston Respublikasi Qonunlari Prezidentining Farmonlari, Qarorlari, Farmoyishlari va Hukumat qarorlarining bajarilishini maqsadli o'rganish.** | | | |
| 5.1 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablari asosida Jamiyat ijroiya apparati, hududiy filiallari va tizim korxonalarida ish yuritish hamda ijro nazoratini ta'minlash. | I-yarim yillikda | A.Nasirdinov, D.Kurbanbayev, M.Abdullayev, hududiy filiallar va tizim korxonalar rahbarlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5.2 | Jamiyatga kelayotgan hujjatlarni ro‘yxatga olish, ularning boshqarma va bo‘limlarga, hududiy viloyat filiallari hamda tizim korxonalariga elektron tarzda yetkazish amaliyotini yanada takomillashtirish. | I-yarim yillikda | D.Kurbanbayev, M.Abdullayev, T.Eshonqulov |
| 5.3 | O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinining qarorlari, farmoyishlari ijrosi hamda ish yuritish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, arxiv ishlarining ahvolini Jamiyatning hududiy viloyat filiallari va tizim korxonalarida maqsadli o‘rganish. | Tasdiqlangan reja jadvaliga asosan | D.Kurbanbayev, M.Abdullayev, hududiy filiallar va tizim korxonalar rahbarlari |
| 5.4 | Jamiyatda ish yuritish hamda ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha tasdiqlangan yo‘riqnoma asosida:<br>Jamiyatning boshqarma hamda bo‘limlari tomonidan hujjatlarni tasdiqlangan yig‘majildlar nomenklaturasi asosida idoraviy arxivga topshirishni ta’minlash;<br>Arxiv ishi bo‘yicha hududiy filiallar hamda tizim korxonalarining mas’ul xodimlariga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish;<br>Idoraviy arxiv xonasini sanitar holatini saqlash, tozalash. | I-yarim yillikda | D.Kurbanbayev, M.Abdullayev, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari |

